

**MOZIY-XO'JALAR YURTI VA BUGUNNING TUTASHGAN MANZILI
TORINJAK**

Avtor:Gulyamova Ruxshona

Ilmiy Rahbar:Xasanov Murod

Torinjakning yangi chehrasi: Ziyoratgoh fayzi va obodlik fidoyilari

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi „Torinjak” mahalla aholisi va tili: Torinjak mahalla aholisi 2026-yil boshiga kelib 4000 dan 6000 nafargachani tashkil etadi mahalla Katta Torinjak va Kichik Torinjakdan iborat mahallada 2 ta na'munali maktab mavjud 5-sonli Maktab va 128-sonli Maktab. Xozirgi kunda mahallaning faol Raisi Xurshid G'aniyev! Tojikiston bilan chegaradoshligi sababli mahalla aholisi asosan Tojik Tilida so'zlashadi. Torinjak to'g'ri chiziq bo'ylab tog'lar orqali Tojikistonning Panjikent shahrigacha bo'lgan masofasi (chegara postigacha) 2-5 kilometrni tashkil etadi. Aholilar orasida quda andachilik va savdo sotiq rivojlangan.

Mavjudlik davri va tarixi

Torinjak hududi eng qadimgi manzilgohlardan biri hisoblanadi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Torinjak atrofida odamlar Paleolit (Tosh davri) dan buyon mavjud ta'xminan 100 ming yil oldin yashay boshlagan. Torinjak alohida punkt va ma'naviy markaz sifatida XVIII- XIX asrlarda shakillangan. Buxoro amirligi (Mang'itlar sulolasi) davriga to'g'ri keladi. Torinjak so'zining ma'nosi- Tojikcha ikki qisimdan iborat bo'lib „TOR”- Qisqa „ Injak” – kichik burjak ma'nolarini anglatadi. Torinjak aholisi qadimdan bo'g'dorchilik, mayiz quritish, chorvadorlik,hunarmandchilik va kashtachilik, pichoqchilik bilan shug'ullangan.

Xo'ja Omon Ziyorat gohi haqida!

Torinjak mahallasining eng qadimgi qadamjolaridan biri bo'lmish Xo'ja Omon ziyoratgohi arxeologik topilmalari XIX asning 60-70 yillariga borib taqaladi. Qadimiyligi esa paleolit davri tosh davriga borib taqaladi.Me'moriy yodgorlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-Oktabrdagi 846-son

qarori bilan moddiy madaniy me'ros obyekti sifatida tasdiqlangan. Izlanish olib brogan olimlar Yahyo G'ulomov va Abdurashid Abdurahmonov.

Xo'ja Omon kim bo'lgan?

Xo'ja Amon — XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida yashab o'tgan, Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, murshid va valiy zotdir. U kishi nafaqat diniy olim, balki o'z davrining ma'naviy rahnamosi bo'lgan.

- Nasabi: U kishi "Xo'ja" unvoniga ega bo'lib, nasabi islom olamining ulug' zotlariga borib taqaladi.
- Xislatlari: Juda kamtar, halol mehnat bilan kun kechirgan, duosi ijobat bo'ladigan zot sifatida ta'riflanadi. U kishi Torinjakka kelib, bu yerda ma'rifat tarqatgan va xalqni to'g'ri yo'lga boshlagan.
- Rivoyat qilishlaricha, u kishi yashagan davrda yurtida turli qahatchiliklar, kasalliklar notinchliklar bo'lgan. Xo'ja Amon Torinjakka kelib, duo qilganlaridan so'ng, hududga tinchlik va omonlik qaytgan. Odamlar: "Bu zot qayerga borsa, omonlik hamrohdir," deb u kishini "Xo'ja Omon" (omonlik beruvchi xo'ja) deb atay boshlashgan. Hozir ham ziyoratchilar bu yerga ruhiy xotirjamlik va oilaviy omonlik so'rab kelishadi.
- Urgutning tog'li hududlarida suv tanqisligi doim dolzarb bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Xo'ja Amon Torinjak yaqinidagi quruq joyda duo qilib, asolarini yerga urganlarida, u yerdan shifobaxsh va muzdek chashma (buloq) otilib chiqqan. Bu suv bilan ekinlar sug'orilib, qishloq obod bo'lgan. (Hozir ham ziyoratgoh atrofidagi suvlar muqaddas va shifobaxsh hisoblanadi.)
- Mahalliy keksalarning aytishicha, Xo'ja Amon tog'da ibodat qilib o'tirganlarida, yovvoyi hayvonlar u kishiga zarar yetkazmagan, aksincha, atrofida xuddi qo'riqchidek turishgan. Bu u kishining tabiat bilan uyg'unlashgan mukammal inson (Insoni komil) bo'lganliklariga ishoradir.
- Maqbara qurilishi bilan bog'liq rivoyatlarda aytilishicha, u kishi vafot etganlaridan so'ng, qabr ustiga gumbaz tiklashda ustalarga g'oyibdan yordam kelgan. Qurilish ashyolari o'z-o'zidan yetib kelgan ish kutilmagan darajada tez bitgan.

- Tarixiy manbalarga ko'ra, o'sha davrning yetuk murshidlari o'z shogirdlarini (muridlarini) islom dini va tasavvuf ilmini yoyish uchun turli hududlarga yuborganlar. Xo'ja Amon ham o'z ustozining duosi va ko'rsatmasi bilan Urgut tog'lari etagidagi aholiga ma'rifat ulashish, ularni to'g'ri yo'lga boshlash (irshod) maqsadida Torinjakni manzil sifatida tanlagan.

- Xalq orasida shunday rivoyat bor: Xo'ja Amon o'ziga munosib maskan izlab safarga chiqqanlarida: "Asoyim qayerda yerga qadalib qolsa yoki qayerda ko'nglim taskin topsa, o'sha yerda qo'nim topaman", deb niyat qilganlar. Torinjakning so'lim tabiati, musaffo havosi va tog' bag'ridagi osoyishtaligi u zotning ko'ngliga ma'qul kelgan. U kishi aynan shu yerda to'xtab, o'ziga hujra (ibodatxona) qurgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab, xalqqa xizmat qilgan.

- Yana bir taxminga ko'ra, o'sha davrdagi siyosiy notinchliklar shahar shovqinidan uzoqlashish maqsadida, Xo'ja Amon kabi zotlar uzlat (yolg'izlikda ibodat qilish) uchun eng chekka va tinch qishloqlarni tanlashgan. Torinjak o'zining geografik joylashuviga ko'ra (tog'lar orasidagi burchakda bo'lgani uchun) bunday ma'naviy xilvatgoh uchun eng qulay joy bo'lgan.

- U kishining bu yerga kelishiga sabab — hudud aholisining samimiyligi va mehmondo'stligi ham bo'lgan. Xo'ja Amon kelganlaridan so'ng, qishloq ahli u zotga katta hurmat ko'rsatgan, u kishi esa evaziga qishloqqa ilm, obodlik va baraka olib kelgan.

Xo'ja Omonning avlodlari

- Xo'ja Amonning avlodlari hozirgi kunda ham mavjud. Ular asosan:
 - Torinjak mahallasida va Samarqand shahrida istiqomat qilishadi.
 - Ular orasida bugun ham diniy ilm bilan shug'ullanuvchi ulamolar, o'qituvchi va ziyolilar ko'p. Mahalliy aholi bu avlod vakillarini hamon hurmat bilan "xo'ja Amonning avlodlari orasida bugungi kunda eng taniqli va mahalla hayotida muhim o'rin tutadigan insonlardan biri — Ismatulla xo'ja (Ismatulla hoji) hisoblanadi.

- Ismatulla xo'ja. Xo'ja Amonning avlodlaridan bo'lib, ko'p yillar

davomida Torinjak mahallasi va Xo'ja Amon ziyoratgohining ma'naviy hayotida faol ishtirok etib kelgan. U kishi nafaqat shajara davomchisi, balki ziyoratgohning obod etilishi, uning tarixiy hujjatlarini tiklash va u yerdagi madaniy merosni saqlab qolishda jonbozlik ko'rsatgan insonlardan biri. Ziyoratgoh haqida yozilgan "Ulug' madadkor" risolasi Ismatulla xo'ja va uning oilasi tomonidan saqlab kelingan og'zaki va yozma manbalarga tayanib, Xo'ja Amon tarixini yoritilgan. Torinjakliklar orasida u kishi "pirning avlodi" sifatida katta hurmatga ega. U kishidan ziyoratgoh tarixi va Xo'ja Amonning karomatlari haqida ko'plab ma'lumotlar olingan.

XAROBADAN OBOD MASKANGACHA

- Torinjak mahallasining bugungi ko'rki va Xo'ja Amon ziyoratgohining fayzli maskanga aylanishida mahalla faoli, oqila ayol Ergasheva Zulayxo Ergashevnaning xizmatlari beqiyos. Zulayho ona hozirda Torinjak mahallasi faollaridan biri. U kishi mahalladagi ayollarning ijtimoiy muammolarini hal qilishda, oilalar mustahkamligini ta'minlashda haqiqiy yo'l boshchidir. Shaxsiy hayotda ham Zulayho ona — namunali ona va qaynona. U 5 nafar farzandni voyaga yetkazib, jamiyatga foydali insonlar qilib tarbiyalagan, ikki kelinning mehribon qaynonasi bo'lib, xonadonida o'zbekona oila an'alarini barqaror tutib kelmoqda. Zulayho ona nafaqat mahalla ishlarida, balki muqaddas Xo'ja Amon ziyoratgohini qayta tiklash, obodonlashtirish va uni chinakam dam olish maskaniga aylantirishda haqiqiy fidoyilik ko'rsatib kelmoqda.

Ziyoratgohga bahshida umr

- Zulayho onaning tashabbusi bilan Xo'ja Amon qadamjosida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. U kishi ziyoratgohning har bir g'ishti, har bir niholi uchun kuyunchaklik bilan yondashadi. Bugun bu maskanga kelgan ziyoratchilar nafaqat ruhiy tasalli topishadi, balki Zulayho ona yaratgan go'zal bog'lar va ozodalikdan bahramand bo'lishadi. Zulayho ona qadimiy ziyoratgoh atrofida keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari olib bordi. Bugungi kunda bu maskan nafaqat duo va ziyorat joyi, balki odamlar ruhiy tasalli topadigan go'zal dam olish maskaniga aylangan. Zulayho onaning g'ayrati bilan ziyoratgohda

ziyoratchilar uchun yaratilgan sharoitlar Torinjakning Urgut tumanidagi turizm salohiyatini yanada oshirmoqda.

Agar tarixni Xo'ja Amon yozgan bo'lsa, o'sha tarixiy omonatni bugun Zulayho ona kabi fidoyilar o'z yelkalarida asrab kelmoqdalar.

Xo'ja Amon ziyoratgohi shunchaki maqbara emas, balki 3000 yillik boy tarixga ega ulkan va qadimiy qabristonning yuragidir. Bu tuproqlar necha asrlardan buyon ajdodlarimiz xoki poklarini o'z bag'rida asrab kelmoqda. Biroq, vaqt o'tishi bilan bu tabarruk maskan qarovsiz qolib, xaroba holiga kelgan edi. 2012-yil Torinjak tarixi uchun burilish nuqtasi bo'ldi. Mahalla ahlining jonkuyar farzandi, fidoyi ayol Ergasheva Zulayho ona bu muqaddas joyning achinarli holatiga befarq qarab tura olmadi. Mahalla ahli va davlat idoralari u kishining ichki g'ayrati va sadoqatiga ishonib, ziyoratgohni obod qilish mas'uliyatini aynan Zulayho onaga topshirdi. Zulayho onaning matonati o'shanda xarobaga aylangan, tikanaklar bosgan qabristonni tartibga keltirish imkonsizdek tuyulardi. Ammo Zulayho hoji ona o'zining tinmas mehnati, tashkilotchiligi va iymoniy burchi bilan mo'jiza yaratdi xarobazor o'rnida pokiza yo'laklar paydo bo'ldi atrof yam-yashil daraxtzor va gullar bilan bezatildi. Ziyoratchilar dam olishi uchun tapchanlar qurdirdi. Bugun 2012-yildagi xaroba manzarasini eslash qiyin. Zulayho ona nafaqat ziyoratgohni qabristonni ham obod qildi. Davlat va xalq ishonchini oqlagan bu ayol, bugun Torinjakning haqiqiy ma'naviy posboniga aylangan. 3000 yillik tarixga ega bu ulug' maskan aynan Zulayho onaning g'ayrati bilan bugun kelajak avlodga g'urur bilan topshiriladigan tabarruk go'shaga aylandi."

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Yaxyo G'ulomov „Xorazimning Sug'orilish" asaridan

Abdurashid Abdurahmonov „Turkiy Adabiyotning qadimiy qatlamlari" to'tinchi qisim

- Sharof Rashidov Nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Tarix va Huquq fakulteti 4-Kurs Talabasi Gulyamova Ruxshonaning „Xarobadan Obod Maskangacha" nomli ilmiy Ish maqolasi!

Nashr: Yangi O'zbekistonning Taraqqiyotida Tadqiqotlarni O'rni va Rivojlanish Omillari. 10.02.2026

AQSH Konfrensiyasi